



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta'minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta'minlashda parlamentning o'rni va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o'ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o'zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o'rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta'minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo'nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

ikkinchidan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to'rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o'simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to'qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	



EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI

G'afforov X. L.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasining Ekologiya va

atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi raisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va «yashil iqtisodiyot»ga o'tish yo'nalishida amalga oshirilayotgan huquqiy, institutsional va tashkiliy islohotlar tahlil qilingan. Unda ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, xalqaro konvensiyalar hamda davlat dasturlarining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, Orolbo'yi hududidagi ekologik holatni yaxshilash, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash va atmosfera havosi monitoringini takomillashtirish bo'yicha erishilgan natijalar ko'rib chiqilgan. O'zbekistonning ekologik diplomatiya, xalqaro ekologik moliyalashtirish va barqaror rivojlanish tashabbuslaridagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratilgan. Tezisdagi ekologik siyosatning aholi salomatligi, turmush sifati va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: ekologik barqarorlik, ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik qonunchilik, iqlim oʻzgarishi, ekologik diplomatiya, Orolboʻyi, qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslari, chiqindilarni boshqarish, biologik xilma-xillik, yashil hududlar, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish.

Abstract. This thesis analyzes the legal, institutional, and organizational reforms being implemented in Uzbekistan to ensure environmental sustainability, protect the environment, and facilitate the transition to a green economy. It examines the content of laws, presidential decrees and resolutions, international conventions, and state programs aimed at strengthening environmental security. The thesis also considers the results achieved in improving the environmental situation in the Aral Sea region, developing renewable energy, managing waste, ensuring the rational use of water resources, expanding green areas, conserving biodiversity, and improving atmospheric air monitoring. Particular attention is paid to Uzbekistan's participation in environmental diplomacy, international environmental financing, and sustainable development initiatives. The importance of environmental policy in protecting public health, improving quality of life, and safeguarding the interests of future generations is substantiated.

Keywords: environmental sustainability, environmental security, green economy, environmental protection, environmental legislation, climate change, environmental diplomacy, Aral Sea region, renewable energy, water resources, waste management, biodiversity, green areas, environmental monitoring, sustainable development.

Аннотация. В данном тезисе проанализированы правовые, институциональные и организационные реформы, реализуемые в Узбекистане в целях обеспечения экологической устойчивости, охраны окружающей среды и перехода к «зелёной» экономике. Раскрыто содержание законов, указов и постановлений Президента, международных конвенций и государственных программ, направленных на укрепление экологической безопасности. Рассмотрены результаты, достигнутые в улучшении экологической обстановки в регионе Приаралья, развитии возобновляемой энергетики, управлении отходами, рациональном использовании водных ресурсов, расширении зелёных территорий, сохранении биологического разнообразия и совершенствовании мониторинга атмосферного воздуха. Особое внимание уделено участию Узбекистана в экологической дипломатии, международном экологическом финансировании и инициативах в области устойчивого развития. Обосновано значение экологической политики в обеспечении здоровья населения, повышении качества жизни и защите интересов будущих поколений.

Ключевые слова: экологическая устойчивость, экологическая безопасность, зелёная экономика, охрана окружающей среды, экологическое законодательство, изменение климата, экологическая дипломатия, Приаралье, возобновляемая энергетика, водные ресурсы, управление отходами, биологическое разнообразие, зелёные территории, экологический мониторинг, устойчивое развитие.



KIRISH

Mustaqillik mamlakatning siyosiy-huquqiy suverenitetini, xalqning erkin va farovon hayot qurishga bo'lgan intilishini hamda milliy taraqqiyot yo'lini ifodalaydi.

2026-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan mamlakat hududlarida turli ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etilmoqda. «Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!» g'oyasi ostida o'tkazilayotgan ushbu tadbirlar mustaqillik yillarida erishilgan natijalarni sarhisob qilish hamda mamlakatning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakat hayotining boshqa sohalari qatori ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi ham izchil rivojlandi. Hozirgi vaqtda ekologik xavfsizlik masalasi faqat tabiatni muhofaza qilish doirasida emas, balki inson salomatligi, aholi farovonligi, iqtisodiy o'sish, investitsiyaviy jozibadorlik va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda inson manfaatlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Inson uchun munosib turmush sharoitini sog'lom va xavfsiz atrof-muhitsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish hamda tabiiy muhitni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga va uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi mustahkamlangan. Shuningdek, davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash yuzasidan choralar ko'rishi belgilangan [1]. 2025-yilning mamlakatda «Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili» deb belgilanishi ham ekologik masalalarning davlat dasturlari darajasida ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotganini ko'rsatadi [14].

Amalga oshirilayotgan islohotlarning umumiy maqsadi inson uchun qulay hayot muhitini yaratish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda kelajak avlodlarga ekologik barqaror muhitni meros qilib qoldirishdan iborat. Bu jarayonda ekologik barqarorlik mamlakat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning huquqiy asoslarga tayanishidir. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ham qonunchilik bazasini takomillashtirish, institutsional mexanizmlarni rivojlantirish hamda davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish choralari izchil amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari hamda sohadagi institutsional o'zgarishlar ekologik siyosatning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamladi. Natijada ekologik xavfsizlik faqat vakolatli davlat organlarining vazifasi sifatida emas, balki davlat, jamiyat, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning umumiy mas'uliyatini talab qiladigan yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Xususan, «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi, «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida»gi, «Ekologik audit to'g'risida»gi, «Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida»gi, «Organik mahsulotlar to'g'risida»gi, «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida»gi hamda «Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida»gi qonunlar sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qildi [2–8].

2025-yilda ekologiya sohasiga oid qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholashning huquqiy mexanizmlari yangilandi [9]. O'zbekiston Respublikasining Orxus konvensiyasiga qo'shilishi to'g'risidagi qonun qabul qilindi [10; 17], issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash sohasidagi munosabatlar alohida qonun bilan tartibga solindi [11] hamda O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi qabul qilindi [12]. Mazkur hujjatlar ekologik boshqaruv, jamoatchilik ishtiroki, iqlim siyosati va suv resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslarini kengaytirdi.

Qonunchilikni rivojlantirish bilan bir qatorda, qabul qilingan hujjatlarning amalda samarali ijro etilishini ta'minlash masalasiga ham e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda ekologik qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat, huquqbuzarliklarning oldini olish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Sohadagi institutsional islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyati tashkil etildi. Qo'mita tizimida Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi — Ekopolitsiyaning faoliyat yuritishi belgilandi [16]. Mazkur tuzilmalar ekologik nazoratni muvofiqlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va ekologik qonunchilik talablarining bajarilishini nazorat qilishga yo'naltirilgan.



Davlat ekologik siyosati nazorat tadbirlari bilan cheklanmaydi. Uning muhim yo'nalishlari tabiatni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish, ekologik qonunchilikka rioya etish darajasini oshirish hamda fuqarolarning atrof-muhit holati uchun mas'uliyatini kuchaytirishni ham qamrab oladi.

Ekologik siyosatning yana bir muhim yo'nalishi raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Atmosfera havosi, suv resurslari, chiqindilar va biologik xilma-xillik holati bo'yicha monitoring tizimlarining elektron platformalarga o'tkazilishi, geoaxborot texnologiyalari va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalanish ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Raqamlashtirish ekologik ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Ekologik axborotdan foydalanish imkoniyatining oshishi jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda davlat organlari va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun qo'shimcha sharoit yaratadi.

O'zbekistonning tashqi siyosatida ekologik diplomatiya va xalqaro ekologik hamkorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Mamlakat mintaqaviy va global ekologik muammolarni muhokama qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, biologik xilma-xillikni saqlash va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha xalqaro tashabbuslarda ishtirok etmoqda.

O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan. Xususan, 2025-yil 11-martda O'zbekiston Respublikasining Orxus konvensiyasiga qo'shilishi to'g'risidagi O'RQ-1045-son Qonun qabul qilindi [10; 17]. Ushbu hujjat ekologik axborotdan foydalanish, ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun xalqaro-huquqiy asos yaratdi.

Xalqaro majburiyatlarning bajarilishi iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqining GSP+ maxsus preferensiyalar tizimi doirasida O'zbekiston 27 ta asosiy xalqaro konvensiyani samarali amalga oshirish majburiyatini olgan. Mazkur tizim GSP bilan qamrab olingan tarif liniyalarining uchdan ikki qismi bo'yicha bojlarni bekor qilish orqali O'zbekiston mahsulotlarining Yevropa Ittifoqi bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi [27].

O'zbekiston tashabbusi asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida ekologiya va barqaror rivojlanish masalalariga oid qator rezolyutsiyalar qabul qilingan. Mazkur hujjatlar Orolbo'yi muammolari, Markaziy Osiyoda ekologik hamkorlik hamda o'rmonzorlashtirish va o'rmonlarni tiklash masalalarini xalqaro kun tartibiga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Ular orasida «Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida»gi rezolyutsiya [21], «Markaziy Osiyo global ekologik tahdidlar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash» rezolyutsiyasi [22] hamda «Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror o'rmon boshqaruviga muvofiq o'rmonzorlashtirish va o'rmonlarni tiklash bo'yicha 2027–2036-yillar o'n yilligi» rezolyutsiyasi [23] alohida o'rin tutadi.

Keyingi yillarda Samarqand shahri ekologik va iqlim masalalari bo'yicha xalqaro muloqot maydonlaridan biriga aylandi. 2025-yil 4–5-aprel kunlari shaharda Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi, yashil iqtisodiyot, suv resurslari va biologik xilma-xillik masalalariga bag'ishlangan Samarqand iqlim forumi o'tkazildi [28].

Birinci «ECO EXPO Central Asia» xalqaro ekologik texnologiyalar ko'rgazmasi 2025-yil 19–21-iyun kunlari Toshkent shahrida tashkil etildi [29].

2025-yil 30-oktabrdan 13-noyabrgacha Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazildi. Sessiya yakunida YUNESKO Bosh konferensiyasi O'zbekiston xalqi va hukumatiga tadbirni tashkil etgani uchun minnatdorlik bildiruvchi rezolyutsiyani qabul qildi [25].

2025-yil 24-noyabrdan 5-dekabrgacha Samarqand shahrida Yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi konvensiya — CITES Tomonlari konferensiyasining 20-sessiyasi o'tkazildi [19; 26]. Mazkur tadbir xalqaro savdoning noyob hayvonot va o'simlik turlariga ta'sirini tartibga solish masalalarini muhokama qilish imkonini berdi.

Samarqandning xalqaro ekologik tadbirlar o'tkaziladigan markaz sifatidagi o'rni 2026-yil 30-maydan 6-iyungacha bo'lib o'tgan Global ekologik fondning VIII Assambleyasi doirasida yanada kengaydi. Tadbirlar dasturiga GEF Kengashining 71-yig'ilishi, yuqori darajadagi davra suhbatlari, ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar hamda «ECO EXPO Central Asia 2026» xalqaro ko'rgazmasi kiritildi [24; 30].

GEF hamkorligi 186 ta a'zo mamlakatni birlashtiradi. Samarqanddagi tadbirlar yakunlari bo'yicha e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, «ECO EXPO Central Asia 2026» doirasida 80 million AQSh dollari miqdoridagi grant mablag'lari va 520 million AQSh dollaridan ortiq «yashil» investitsiya majburiyatlari jalb qilindi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energetika, suv resurslarini boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarda qariyb 300 ta kelishuv imzolandi [30].

Global ekologik fondning VIII Assambleyasida O'zbekistonning GEFga donor mamlakat sifatida qo'shilishi e'lon qilindi [24]. Ushbu qaror mamlakatning xalqaro ekologik moliyalashtirish tizimidagi ishtirokini kengaytirish va global ekologik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.



Orolbo'yini rivojlantirishga oid yondashuv ham ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish bilan bir qatorda hududda barqaror rivojlanish, «yashil» iqtisodiyot, ekoturizm va innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalarini qamrab olmoqda. Mazkur yo'nalish hududning ekologik holatini yaxshilash, aholi turmush sharoitini qo'llab-quvvatlash va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Amaliy natijalar ham muhim ahamiyatga ega. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2018–2025-yillarda Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda himoya o'rmonzorlari — «yashil qoplamalar» barpo etildi. 2025-yilda Orolbo'yi mintaqasida jami 150,7 ming gektar maydonda yashil hududlar tashkil etildi. Shundan 145,2 ming gektari Orol dengizining qurigan tubi va unga tutash hududlarga, jumladan, 90,5 ming gektari Mo'ynoq tumaniga to'g'ri keladi [31].

Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik siyosat milliy ekologik muammolarni hal etish bilan birga, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga ham yo'naltirilganini ko'rsatadi. Mamlakatning xalqaro ekologik tashabbuslarda ishtirok etishi, tegishli forum va konferensiyalarga mezbonlik qilishi ekologik hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ekologik siyosat iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi uchun sog'lom hayot muhitini yaratish vazifalari mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlariga integratsiya qilingan. Shu munosabat bilan «yashil iqtisodiyot»ga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [13; 14].

Qabul qilingan strategik hujjatlarda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish va issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan [2; 11; 13; 14].

Energetika sohasida amalga oshirilgan loyihalar natijasida quyosh va shamol energetikasining mamlakat elektr energetikasi tizimidagi o'rni ortib bormoqda. Ushbu jarayon qayta tiklanuvchi energiya manbalarini an'anaviy generatsiya quvvatlari bilan uyg'unlashtirish hamda energiya ta'minotining barqarorligini oshirish imkonini bermoqda.

2025-yil yakuni holatiga ko'ra, mamlakatda umumiy quvvati 3930 megavatt bo'lgan 15 ta quyosh va 1652 megavatt bo'lgan 5 ta shamol elektr stansiyasi faoliyat yuritgan. Quyosh va shamol elektr stansiyalarining jami o'rnatilgan quvvati 5,6 gigavattga yaqinlashgan. 2025-yilda mamlakatda 86,7 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 6 foizga oshgan. Shundan 16,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi qayta tiklanuvchi manbalar — quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalari hissasiga to'g'ri kelgan. Faqat quyosh va shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan energiya hajmi 10,5 milliard kilovatt-soatni tashkil etib, bir yil davomida 2,1 baravarga oshgan. Natijada 3,2 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va atmosferaga 4,7 million tonna zararli tashlanma chiqarilishining oldini olish imkoniyati yaratilgan [32].

2030-yilga qadar elektr energiyasini saqlash tizimlarining umumiy quvvatini 4,5 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan [33]. Shuningdek, yangilangan milliy iqlim majburiyatlarida 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energetikasidagi ulushini 54 foizga yetkazish maqsadi belgilangan [34].

Dekarbonizatsiya yo'nalishida O'zbekiston Parij bitimi doirasidagi Milliy miqyosda belgilangan hissasini yangiladi [18; 34]. Yangilangan NDC 3.0 hujjatiga muvofiq, 2035-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari tashlamalari intensivligini 2010-yilgi darajaga nisbatan 50 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan. Mazkur ko'rsatkich avvalgi, 2030-yilga qadar 35 foizga kamaytirish majburiyatiga nisbatan kengaytirilgan maqsad hisoblanadi [34].

«Yashil iqtisodiyot»ga o'tishda sanoat va chiqindilarni boshqarish sohasi ham muhim o'rin egallaydi. Maishiy chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish, ularni saralash va qayta ishlash darajasini oshirish, shuningdek, ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmonida mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarini 2030-yilga qadar 50 foizga qisqartirish, yangidan hosil bo'layotgan chiqindilarni imkon qadar qayta ishlash yoki termik utilizatsiya qilish hamda sohaga sirkulyar iqtisodiyot amaliyotini joriy etish belgilangan [15]. Shuningdek, «nol chiqindi» tamoyili asosida chiqindilarni qayta ishlash, ulardan muqobil energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ekosanoat zonalarini tashkil etish nazarda tutilgan [15].

Sanitar tozalash sohasida xususiy sektor ishtiroki ham kengayib bormoqda. Rasmiy axborotga ko'ra, 2025-yil 1-dekabr holatiga xususiy sheriklar tomonidan 386,5 milliard so'mlik investitsiyalar hisobidan maxsus texnika, chiqindi konteynerlari, saralash va qayta ishlash uskunalari xarid qilingan hamda chiqindi yig'ish shoxobchalari tashkil etilgan [36].

Ekologik loyihalarni amalga oshirishda «yashil» moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati ham ortib bormoqda. Xalqaro moliya institutlari, ekologik jamg'armalar va xususiy investorlar bilan hamkorlik ekologik va iqlim loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda.



«Yashil iqtisodiyot»ga o'tishning yakuniy maqsadi aholi uchun sog'lom va xavfsiz yashash muhitini shakllantirishdan iborat. Havo sifatini yaxshilash, barqaror energiya ta'minotini rivojlantirish, ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini oshirish, chiqindilar miqdorini kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish aholi turmush sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish masalasi qishloq xo'jaligi va melioratsiya sohasi bilan cheklanmay, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq kompleks yo'nalish sifatida qaralmoqda. Iqlim o'zgarishi va suv resurslariga bo'lgan talabning ortishi suvdan oqilona hamda tejamkor foydalanishni talab etmoqda.

2025-yil 30-iyulda O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi qabul qilindi [12]. Kodeksning 122-moddasida sanitariya va ekologik maqsadlarda suv chiqarishning huquqiy tartibi belgilangan. Unga ko'ra, bunday suv chiqarish suv sifatining belgilangan normativlariga rioya etilishi, suvdan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratilishi, shuningdek, suvli-botqoq yerlar, ko'llar va sohilbo'yi zonalarining ekologik tizimlari saqlanishini ta'minlashga yo'naltiriladi [12].

Sanitariya va ekologik maqsadlarda suv chiqarish hajmi yilning suvlilik darajasi, suv xo'jaligi balanslari va suvdan foydalanish rejalari doirasida belgilanadi. Mazkur norma suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bir qatorda ekotizimlarning suvga bo'lgan ehtiyojlarini ham hisobga olish uchun huquqiy asos yaratadi [12].

Suv tanqisligi xavfini kamaytirish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham muayyan natijalarni bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yil yakunlariga oid hisobotiga ko'ra, 887 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan. Jumladan, 104 ming gektarda tomchilatib sug'orish, 31 ming gektarda yomg'ir latib sug'orish va 14 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari qo'llangan. Shuningdek, 614 ming gektar qishloq xo'jaligi ekin maydoni lazerli uskunalar yordamida tekislangan [35].

Aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Inson salomatligi, turmush sifati va hududlarning barqaror rivojlanishi ichimlik suvi ta'minoti hamda oqova suv infratuzilmasining holatiga bevosita bog'liq.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda ichimlik va oqova suv tizimini rivojlantirishga jalb qilingan investitsiyalar hajmi o'n baravar oshib, 2,7 milliard AQSh dollariga yetgan. Natijada 7,7 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan, 11 million aholining suv ta'minoti yaxshilangan va 1,1 million kishi kanalizatsiya tizimiga ulangan. Shu davrda 39 ming kilometr ichimlik suvi va 3,2 ming kilometr oqova suv tarmoqlari qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan. Bundan tashqari, 3,4 mingta ichimlik suvi inshooti hamda 295 ta oqova suv inshooti va nasos stansiyasi barpo etilgan yoki yangilangan. Markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 2017-yildagi 63 foizdan qariyb 83 foizga oshgan [37].

«O'zbekiston — 2030» strategiyasining yangilangan tahririda 2030-yilga qadar ichimlik suvi xizmatlaridan doimiy foydalanish imkoniyatiga ega aholi ulushini 90 foizga yetkazish belgilangan [13]. Mazkur maqsad aholi salomatligini muhofaza qilish, hududlarning sanitariya holatini yaxshilash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli siyosatning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ekologik islohotlarning samaradorligi, eng avvalo, ularning aholi turmush sifati, salomatligi va yashash muhitiga ko'rsatayotgan amaliy ta'siri bilan baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, amalga oshirilayotgan ekologik loyihalar atrof-muhit holatini yaxshilash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga yo'naltirilmoqda.

2025-yilda «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida respublika bo'yicha jami 266 million tup daraxt va buta ko'chati ekildi. Jumladan, bahor mavsumida 137 million tup, kuz mavsumida esa 129 million tup ko'chat o'tqazildi [38].

Yashil fondni raqamlashtirish doirasida 605 ming tup daraxt uchun elektron pasport shakllantirilib, ular yagona monitoring platformasiga kiritildi [39]. Elektron pasportlarda daraxtlarning turi, joylashuvi va holatiga oid ma'lumotlarning qayd etilishi ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2025-yil davomida «Mening bog'im» loyihasi doirasida 155 ta tuman va shaharda «yashil bog'lar» hamda «yashil jamoat parklari»ni barpo etish bo'yicha yakuniy ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, respublika hududlarida jami 475 kilometr uzunlikdagi «Soyali sayr ko'chalari» va 378 kilometr uzunlikdagi «Sog'lomlashtirish yo'laklari» tashkil etildi [38].

2026-yil 1-aprel kuni Toshkent shahrida Milliy dendrologiya bog'ini barpo etish ishlari boshlandi. Bog'ning dastlabki 5 gektar maydonida manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekildi [40]. Mazkur loyiha ko'kalamzorlashtirishni ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, mahalliy sharoitga mos o'simlik turlarini o'rganish va yashil hududlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog'ini kengaytirish bo'yicha ham muayyan natijalarga erishildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilgacha bunday hududlar mamlakat maydonining 4,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib ularning umumiy maydoni 6,326 million gektarga, ya'ni mamlakat hududining 14,09 foiziga yetgan [41].



Biologik xilma-xillikni saqlash doirasida noyob hayvon turlarining tabiiy populyatsiyasini tiklash bo'yicha tadbirlar davom ettirilmoqda. Jumladan, 2026-yil 26-iyunda Orolbo'yi hududida 672 ta yo'rg'a tuvaloq tabiiy yashash muhitiga qo'yib yuborildi [42]. Bunday tadbirlar noyob qush turlarini muhofaza qilish va ularning tabiiy areallarini tiklashga ko'maklashadi.

Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi dorivor va texnik o'simliklarni yig'ish, tayyorlash hamda ularning tabiiy zaxiralaridan oqilona foydalanish tartibi takomillashtirildi. Belgilangan tartibga ko'ra, bunday o'simliklardan maxsus foydalanish tegishli kvota va ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi [43].

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida avtomatlashtirilgan monitoring tizimini kengaytirish choralari ko'rilmogda. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-noyabrdagi 783-son qarori bilan respublika hududlarida atmosfera havosining fon ifloslanishini kuzatishga mo'ljallangan 347 ta kichik avtomatlashtirilgan stansiyaning o'rnatish manzilli ro'yxati tasdiqlandi [44]. Mazkur stansiyalar ma'lumotlarini davlat ekologik monitoringining yagona geoaxborot bazasiga integratsiya qilish nazarda tutilgan.

Sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish yo'nalishida ham texnik tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2025-yilning birinchi yarmida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi 44 ta sanoat korxonasida 47 ta chang-gaz tozalash uskunasi modernizatsiya qilindi, 2 ta korxonada esa yangi yuqori samarali tozalash uskunasi o'rnatildi. Shuningdek, 18 ta korxonada lokal oqova suvlarni tozalash inshootlari qurildi yoki rekonstruksiya qilindi [45].

Ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish ham ekologik siyosatning muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrdagi PQ-443-son qarorida mamlakatda ishlab chiqarilgan elektromobil va gibridd avtomobillarni xarid qilish uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarning bir qismini Davlat budjeti hisobidan kompensatsiya qilish mexanizmi belgilangan [46]. Mazkur mexanizm elektr transport vositalaridan foydalanishni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

2026-yil 22-iyulda Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanida Toshkent-Samarqand yo'nalishidagi pulli muqobil avtomobil yo'li qurilishi boshlandi. Loyiha xalqaro sifat, xavfsizlik va ekologik standartlar asosida amalga oshirilishi hamda 2030-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan [47].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va ekologik loyihalar fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashash huquqini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun barqaror ekologik muhitni shakllantirishga qaratilgan [1].

Mustaqillik yillarida ekologik xavfsizlik va «yashil iqtisodiyot» masalalari mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirildi. Amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekistonning BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro'yobga chiqarishdagi ishtiroki hamda milliy ekologik siyosatning izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi [20].

«Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!» g'oyasi doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim o'rin egallaydi. Ekologik qonunchilikni takomillashtirish, yashil hududlarni kengaytirish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mamlakatning bugungi rivojlanishi hamda kelajak avlodlar farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda qabul qilingan yangi tahrir // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni, 2019-yil 21-may, O'RQ-539-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4346831> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasining «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida»gi Qonuni, 2019-yil 9-sentabr, O'RQ-565-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4506940> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik audit to'g'risida»gi Qonuni, 2021-yil 15-mart, O'RQ-678-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/5331133> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasining «Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 2022-yil 12-yanvar, O'RQ-745-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5819317> (murojaat sanasi: 04.08.2026).



6. O'zbekiston Respublikasining «Organik mahsulotlar to'g'risida»gi Qonuni, 2022-yil 25-aprel, O'RQ-766-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5980334> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
7. O'zbekiston Respublikasining «Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida»gi Qonuni, 2022-yil 22-iyul, O'RQ-784-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/6126864> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
8. O'zbekiston Respublikasining «Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida»gi Qonuni, 2024-yil 2-fevral, O'RQ-903-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/6787881> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida»gi Qonuni, 2025-yil 24-fevral, O'RQ-1036-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-7397280> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
10. O'zbekiston Respublikasining «Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Konvensiyaga (Orxus, 1998-yil 25-iyun) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida»gi Qonuni, 2025-yil 11-mart, O'RQ-1045-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7424688> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
11. O'zbekiston Respublikasining «Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida»gi Qonuni, 2025-yil 7-iyul, O'RQ-1073-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-7616051> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
12. O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi, 2025-yil 30-iyul // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7655343> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2026-yil 16-fevral, PF-21-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/8050769> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «“O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni, 2025-yil 30-yanvar, PF-16-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/7369703> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2025-yil 24-mart, PF-56-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7445858> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2025-yil 18-noyabr, PQ-343-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7847341> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
17. United Nations Economic Commission for Europe. Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-Making and Access to Justice in Environmental Matters [Electronic resource]. — Aarhus, Denmark, 25 June 1998. — URL: <https://unece.org/fileadmin/DAM/env/pp/documents/cep43e.pdf> (accessed: 04.08.2026).
18. United Nations Framework Convention on Climate Change. Paris Agreement [Electronic resource]. — Paris, 12 December 2015. — URL: https://unfccc.int/sites/default/files/resource/english_paris_agreement.pdf (accessed: 04.08.2026).
19. Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora [Electronic resource]. — Washington, D.C., 3 March 1973. — URL: <https://cites.org/eng/disc/text.php> (accessed: 04.08.2026).
20. United Nations General Assembly. Transforming Our World: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution A/RES/70/1 [Electronic resource]. — New York: United Nations, 2015. — URL: <https://sdgs.un.org/2030agenda> (accessed: 04.08.2026).
21. United Nations General Assembly. Declaring the Aral Sea Region a Zone of Ecological Innovations and Technologies: Resolution A/RES/75/278 [Electronic resource]. — New York: United Nations, 2021. — URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3928288> (accessed: 04.08.2026).
22. United Nations General Assembly. Central Asia Facing Environmental Challenges: Fostering Regional Solidarity for Sustainable Development and Prosperity: Resolution A/RES/78/147 [Electronic resource]. — New York: United Nations, 2023. — URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4031770> (accessed: 04.08.2026).



23. United Nations General Assembly. United Nations Decade for Afforestation and Reforestation in Line with Sustainable Forest Management, 2027–2036: Resolution A/RES/79/283 [Electronic resource]. — New York: United Nations, 2025. — URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4081511> (accessed: 04.08.2026).
24. Global Environment Facility. Chair's Summary of the Eighth GEF Assembly: GEF/A.8/08 [Electronic resource]. — Samarkand, 5 June 2026. — URL: <https://www.thegef.org/sites/default/files/documents/2026-06/GEF.A.08.Summary%20Chairs%20Summary%20of%20the%20Eight%20GEF%20Assembly.pdf> (accessed: 04.08.2026).
25. UNESCO. General Conference: 43rd Session, 30 October – 13 November 2025, Samarkand, Uzbekistan [Electronic resource]. — Paris: UNESCO, 2025. — URL: <https://www.unesco.org/en/general-conference/43> (accessed: 04.08.2026).
26. CITES Secretariat. Twentieth Meeting of the Conference of the Parties, 24 November – 5 December 2025, Samarkand, Uzbekistan [Electronic resource]. — Geneva: CITES Secretariat, 2025. — URL: <https://cites.org/eng/cop20> (accessed: 04.08.2026).
27. European Commission. Uzbekistan Joins the European Union's GSP+ Arrangement [Electronic resource]. — Brussels, 9 April 2021. — URL: https://policy.trade.ec.europa.eu/news/uzbekistan-joins-eus-gsp-arrangement-2021-04-09_en (accessed: 04.08.2026).
28. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. Samarqand iqlim forumi qanday natijalarga erishdi? [Elektron resurs]. — 2025-yil 8-aprel. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/44463> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
29. National Committee on Ecology and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. Over 120 Agreements Signed at Eco Expo Central Asia 2025 [Electronic resource]. — 24 June 2025. — URL: <https://gov.uz/en/eco/news/view/63541> (accessed: 04.08.2026).
30. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. Prezidentning ekologik tashabbuslarini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi [Elektron resurs]. — 2026-yil 16-iyun. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/179413> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
31. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. 2025-yilda Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik holatni barqarorlashtirish uchun 32 million dollardan ortiq grant mablag'lari jalb etildi [Elektron resurs]. — 2025-yil 26-dekabr. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/114432> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
32. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. 2025-yilda yoqilg'i-energetika sohasida amalga oshirilgan ishlar [Elektron resurs]. — 2026-yil 5-yanvar. — URL: <https://gov.uz/oz/minenergy/news/view/127308> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
33. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. O'zbekiston energetika tizimida energiya saqlash tizimlari rivojlanmoqda [Elektron resurs]. — 2026-yil 17-mart. — URL: <https://gov.uz/uz/minenergy/news/view/143571> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
34. Republic of Uzbekistan. Updated Nationally Determined Contribution of the Republic of Uzbekistan (NDC 3.0) for the Period up to 2035 within the Framework of the Paris Climate Agreement [Electronic resource]. — Tashkent, 2025. — URL: <https://unfccc.int/sites/default/files/2025-11/Uzbekistan%20Third%20NDC.pdf> (accessed: 04.08.2026).
35. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2025-yildagi faoliyati yakunlari haqida hisobot [Elektron resurs]. — Toshkent, 2026. — URL: https://api-portal.gov.uz/uploads/25/2026/02/28/a722181d-99e1-4847-03ea-ff5188f16b4b_media_.pdf (murojaat sanasi: 04.08.2026).
36. O'zbekiston Respublikasi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi. Brifing: 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi [Elektron resurs]. — 2026-yil 7-yanvar. — URL: <https://gov.uz/oz/sanitation/news/view/117269> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
37. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ichimlik va oqova suv xizmatlarini yaxshilash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi [Elektron resurs]. — 2026-yil 20-iyul. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9424> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
38. O'zbekiston Respublikasi O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi. O'zbekistonda o'rmon bilan qoplangan maydonlar yanada kengaytirildi [Elektron resurs]. — 2026-yil 7-yanvar. — URL: <https://gov.uz/oz/urmon/news/view/116844> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
39. National Committee on Ecology and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. Expansion of the "Yashil Makon" Project as a Foundation for the Country's Sustainable Development [Electronic resource]. — 24 December 2025. — URL: <https://gov.uz/en/eco/news/view/113867> (accessed: 04.08.2026).
40. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berildi [Elektron resurs]. — 2026-yil 1-aprel. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9067> (murojaat sanasi: 04.08.2026).



41. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. Bugun, 11-yanvar — Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni [Elektron resurs]. — 2025-yil 11-yanvar. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/32501> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
42. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. Orolbo'yida 670 dan ortiq noyob yo'rg'a tvaloq yovvoyi tabiatga qo'yib yuborildi [Elektron resurs]. — 2026-yil 30-iyun. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/185533> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
43. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. Yovvoyi o'simliklarning texnik va dorivor xomashyosini yig'ish tartibi belgilandi [Elektron resurs]. — 2026-yil 19-may. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/167433> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
44. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. Tashlamalarning avtomatik monitoring stansiyalarini o'rnatish tartibi tasdiqlandi [Elektron resurs]. — 2024-yil 28-noyabr. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/28797> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
45. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. 2025-yilning birinchi yarmi: O'zbekistonda ekologik o'zgarishlar jadallashmoqda [Elektron resurs]. — 2025-yil 6-avgust. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/75935> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
46. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2022-yil 19-dekabr, PQ-443-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/6316585> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
47. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Toshkent–Samarqand yangi avtomobil yo'li qurilishiga start berildi [Elektron resurs]. — 2026-yil 22-iyul. — URL: <https://gov.uz/oz/news/view/196382> (murojaat sanasi: 04.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

